



Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar - dekabr

E'tibor bering:

- 2019 yil yanvar – dekabrda kichik tadbirkorlikning YalMdagi ulushi **52,7 %**ni tashkil etdi.
- 2019 yil yanvar – dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) **14,9 birlikni** tashkil qildi.
- 2019 yil yanvar – dekabrda 9671ta yangi yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,9 marta ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda (37,7 %), sanoatda (21,1%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (10,8%), qurilishda (9,2%), yashash va ovqatlanishda (8,7%), tashish va saqlashda (3,5 %) tashkilotilgan.

2019 yil yanvar – dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2019 yilning yanvar- dekabrda kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2018 yil	2019 yil	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	25410	32602	7192
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	5080	9671	4591
YaIM	%	57,7	52,7	-5,0
Sanoat	%	28,9	27,6	-1,3
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	96,3	96,1	-0,2
Investitsiya	%	39,5	33,9	-5,6
Qurilish	%	75,1	78,3	3,2
Savdo	%	86,5	90,4	3,9
Xizmatlar	%	73,8	70,5	-3,2
Yuk tashish	%	30,4	25,9	-4,5
Yuk aylanmasi	%	63,5	58,2	-5,3
Yo'lovchi tashish	%	89,4	90,0	0,6
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,7	96,2	0,5
Eksport	%	29,2	31,5	2,3
Import	%	43,3	48,0	4,7



2019 - yilning yanvar – dekabrda kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, %



2019 - yilning yanvar-dekabrda yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkichni Zangiota tumani - 1363 ta, Qibray tumani - 742 ta, Toshkent tumani - 692 ta, O'rtachirchiq tumani - 614 ta, Angren shahri - 610 ta bilan qayd etgan. Eng past ko'rsatkich Piskent tumanida 204 ta, Ohangaron shaharda 196 ta bilan qayd etildi.




Yangi tashkil qilingan kichik biznes sub'ektlari soni va hududlar bo'yicha umumiy songa nisbatan ulushi

	Yanvar – dekabr 2018 - yil	Yanvar – dekabr 2019 - yil
Toshkent viloyati	5080	9671
shaharlar:		
Nurafshon shahar	144	293
Olmaliq shahar	180	359
Angren shahar	300	610
Bekobod shahar	150	319
Ohangaron shahar	106	196
Chirchiq shahar	305	464
Yangiyo'l shahar	178	281
tumanlar:		
Oqqo'rg'on tumani	147	291
Ohangaron tumani	147	246
Bekobod tumani	139	229
Bo'stonliq tumani	249	482
Bo'ka tumani	152	292
Qo'yichirchiq tumani	193	286
Zangiota tumani	513	1363
Yuqorichirchiq tumani	272	487
Qibray tumani	446	742
Parkent tumani	200	378
Piskent tumani	116	204
O'rtachirchiq tumani	303	614
Chinoz tumani	178	296
Yangiyo'l tumani	321	547
Toshkent tumani	341	692



2019 yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %




Yangi tashkil qilingan kichik biznes sub'ektlarining asosiy qismi Zangiota tumani (14,1%), Qibray tumani (7,7 %), Toshkent tumani (7,2 %), Angren shahar (6,3 %) hissasiga to'g'ri kelsa, faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlarining eng past darajasi Piskent tumani (2,1 %) va Ohangaron shahar (2,0 %) hissasiga to'g'rikeldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

	Yanvar - dekabr 2018 yil	Yanvar - dekabr 2019 yil
Jami	5080	9671
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	855	1048
Sanoat	1312	2039
Qurilish	580	892
Savdo	1098	3649
Tashish va saqlash	194	336
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	435	857
Axborat va aloqa	85	102
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	75	103
Boshqa turdagi xizmatlar	466	645

Ma'lumot uchun: 2019 yil yanvar-fevralda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ko'p qismi quyidagi sohalarda tashkil topdi:




Yangi tashkil etilgan korxonalar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar

Tuman va shaharlar	yanvar -dekabr 2018 yil	yanvar– dekabr 2019 yil	farq (+-)
Zangiota tumani	513	1363	850
Qibray tumani	446	742	296
Toshkent tumani	341	692	351
O'rtachirchiq tumani	303	614	311
Angren shahar	300	610	310
Yangiyo'l tumani	321	547	226
Yuqorichirchiq tumani	272	487	215

2019 yil yanvar-dekabrda yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Zangiota tumanida – 850 ta bilan qayd etildi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda





Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - dekabr holatiga*.



2019 yil yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Ohangaron shahrida 20,6 birlik, Zangiota tumanida 19,5 birlik, Nurafshon shaharda 18,0 birlik, Yangiyo'l shaharda 17,3 birlik, Qibray tumanida 15,3 birlik, Yuqorichirchiq tumanida 13,6 birlik, Toshkent tumanida 13,6 birlik, O'rtachirchiq tumanida 12,8 birlikda aniqlandi. Bu ko'rsatkich Bo'ka va Bekabod tumanida past bo'lib, mos ravishda 5,7 hamda 5,6 birlikni tashkil qilmoqda.

**Kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo'jaliklari*




2019 yilning yanvar-dekabrida tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).*



* Kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo'jaliklari




Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkichga ega tumanlar (har 1000 aholiga, birlikda).*



2019 yil yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Ohangaron shahrida 20,6 birlik, Zangiota tumanida 19,5 birlik, Nurafshon shaharda 18,0 birlik, Yangiyo'l shaharda 17,3 birlik, Qibray tumanida 15,3 birlik, Yuqorichirchiq tumanida 13,6 birlik, Toshkent tumanida 13,6 birlikda aniqlandi. Bu ko'rsatkich Bo'ka va Bekabod tumanida past bo'lib, mos ravishda 5,7 hamda 5,6 birlikni tashkil qilmoqda.

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




Bundan ko'rinib turibdiki, Ohangaron tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Bekobod tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxonalar soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi Dinamikasi, yanvar - dekabr holatiga, %


2019 yilning yanvar - dekabrda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 52,7 %ni tashkil qildi. (2018 - yilning yanvar - dekabrda 57,7 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.






Kichik tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



2019 - yilning yanvar - dekabrda iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi






2019 yilning yanvar - dekabrda kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

	Sanoat	Qurilish	Investitsiya	Xizmatlar
Toshkent viloyati	27,6	78,3	33,9	70,5
shaharlar:				
Nurafshon sh.	46,4	94,6	10,1	6,4
Olmaliq sh.	2,0	53,8	4,7	84,3
Angren sh.	14,0	80,4	59,2	92,5
Bekobod sh.	4,3	65,0	21,9	93,4
Ohangaron sh.	18,1	80,9	36,4	82,8
Chirchiq sh.	45,8	80,8	21,7	83,0
Yangiyo'l sh.	61,2	44,5	52,5	98,1
tumanlar:				
Oqqo'rg'on tumani	59	94,3	13,8	98,6
Ohangaron tumani	56,5	82,7	48,9	97
Bekobod tumani	67,2	76,1	60,4	96,6
Bo'stonliq tumani	59,9	79,1	17,7	84,9
Bo'ka tumani	83,3	94,2	45,3	97,6
Quyichirchiq tumani	86,6	85,7	70,2	97,6
Zangiota tumani	32,6	71,5	40,8	84,9
Yuqorichirchiq tumani	82,5	83,5	71,2	88,7
Qibray tumani	39,8	73,3	28,7	43,7
Parkent tumani	85,7	82,7	69,6	94,8
Piskent tumani	63,7	84,1	62,0	98,4
O'rtachirchiq tumani	81	92,7	62,1	81,5
Chinoz tumani	57,5	82,3	65,6	79,9
Yangiyo'l tumani	61,9	64,4	38,6	97,8
Toshkent tumani	93,4	92,2	78,0	88,7



Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2019 yilning yanvar - dekabrda






2019 yilning yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmatlar)ning jami eksportdagi eng ko'p ulushini Nurafshon va Yangiyo'l shaharlar - 100 %, Bo'ka va Parkent tumanlari – 99,9 %, O'rtachirchiq tumani – 99,7 %, Ohangaron shahar – 98,7 %, Bekabod tumani – 98,6 % tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Chinoz tumanida 37,3%, Bo'stonliq tumanida 28,8%, Bekabod shahrida 1,1% va Olmaliq shahrida 0,5 % tashkil qilmoqda.




Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar va xizmatlar)ning, jami eksport hajmidagi ulushi, %






Kichik tadbirkorlikdagi import (tovar, xizmatlar)ning, jami Import hajmidagi ulushi, %



2019 - yil yanvar - dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi import (tovar, xizmatlar)ning jami importdagi eng ko'p ulushi Bo'ka, Bekabod va Parkent tumanlarida – 100 %, Nurafshon shahrida – 99,7%, O'rtachirchiq tumanida – 96,2%, Toshkent tumanida – 94,3%ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich Chirchiq shahrida – 50,0%, Ohangaron tumanida – 23,4%, Bekabod shahrida – 3,7% va Olmaliq shahrida – 1,7% bilan kam ulushni tashkil etdi.




2019 – yil yanvar – dekabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlikda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so`mda)




Hududlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Chirchiq shahri (2126,3 mlrd. so`m), Toshkent tumani (1923,1 mlrd. so`m) va Yuqorichirchiq tumani (1596,2 mlrd. so`m) hissasiga to`g`ri keladi. Ohangaron tumanida (106,4 mlrd. so`m) ishlab chiqarish hajmi past bo`libqolmoqda.





2019 yil yanvar-dekabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulush Toshkent tumani (93,4%), Qurichirchiq tumani (86,6%), Parkent tumani (85,7%), Bo'ka tumani (83,3%), Yuqorichirchiq tumani (82,5%) va O'rtachirchiq tumani(81,0%), tashkil etdi. Bekobod shahar (4,3%) va Olmaliq shaharlarda (2,0%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'libqolmoqda.






2019 yilning yanvar-dekabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Zangiota tumani (2022,3 mlrd. so'm), Olmalik shahar (1414,0 mlrd. so'm) va Qibray tumani (967,3 mlrd. so'm) hissasiga to'g'rikeladi. Ohangaron tumani (251,1 mlrd. so'm) va Ohangaron shaharlarda (282,6 mlrd. so'm) bu ko'rsatkich kamligini ko'rishimiz mumkin.



2019 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha qurilishdagi kichik tadbirkorlikning hajmi va ulushi




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami qurilish ishlaridagi eng yuqori hajmi Zangiota tumani (202,6 mlrd. so'm), Chirchiq shahar (188,8 mlrd. so'm) va Angren shahar (165,5 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Yangiyo'l shahar (40,1 mlrd. so'm) va Qoyichirchiq tumanida (44,8 mlrd. so'm) bu ko'rsatkich kamligini ko'rishimiz mumkin.





2019 yil yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichiktadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami xizmatlardagi eng yuqori hajmi Zangiota tumani (888,8 mlrd. so'm), Chirchiq shahar (774,5 mlrd. so'm), Olmaliq shahar (701.3 mlrd. so'm) va Toshkent tumani (636,8 mlrd. so'm) hissasiga to'g'rikeladi. Nurafshon shahar (155,0 mlrd. so'm), Ohangaron tumani (165,1 mlrd. so'm) va Piskent tumanida (166,4 mlrd. so'm) bu ko'rsatkich nisbatan kam.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil IV chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **1322** tadan ortiq respondentlar ishtirok etdi.


2019 yil IV - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirmalar va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning savdo sohasida – 25,2% (333 ta), sanoatda – 23,8% (315 ta), xizmatlarda – 33,7% (446 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 8,5%(113ta), qurilishda–8,7%(115ta) ni tashkil qildi.

** yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.*

2019 yilning IV choragi bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2019 yilning IV choragi bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra sanoat bilan shug'ullanadigan korxonalar uchun qulay iqtisodiy ahvol yaxshilandi va joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan ularning bahosi 11 punktga o'sdi.

Shu bilan birga, boshqa faoliyat turi korxonalarida umumiy iqtisodiy holatning ijobiy bahosi pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida III chorakka nisbatan iqtisodiy holatini qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik korxonalarida (2,8 punktga) hamda qurilish korxonalarida 2,7 punktga o'sdi. O'tgan chorakka nisbatan eng katta ulushni umumiy iqtisodiy ahvoli qoniqarli bo'lgan korxonalar tashkiletadi.



Oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumga ega bo'lgan mikrofirma va kichik korxonalarning 2019 yil III va IV choragi bo'yicha iqtisodiy ahvolni baholash, %




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qurilish korxonalar uchun qulay iqtisodiy holat yaxshilandi va ularning bahosi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,8 punktgaoshdi.

Shu bilan birga, boshqa faoliyat korxonalar o'rtasida umumiy iqtisodiy holatning ijobiy bahosi pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida iqtisodiy faoliyatning sanoat, qurilish va savdo turlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy ahvolni qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushining pasayishikuzatildi.

Eng katta ulushni umumiy iqtisodiy ahvoli qoniqarli deb topilgan korxonalar tashkil qiladi.

Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2018 – 2019 yillar IV chorakdagi iqtisodiy ahvolini baholash, %




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan iqtisodiy vaziyatni yaqin uch oyda yaxshilashga ishongan: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari ulushi - 0,2 punktga, savdo - 0,4 punktga o'sdi.

Shu bilan birga, o'tgan chorak bilan taqqoslaganda, faoliyatning deyarli barcha turlari bo'yicha yaqin uch oyda ularning iqtisodiy ahvoli o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi sanoatda 8,9 punktga, qurilishda 10,6 punktga, savdoda 5,9 punktga, sanoatda esa 5,6 punktga kamaydi.

Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil III va IV choraklardagi iqtisodiy ahvolining yaqin uch oyda baholanishi %




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolni yaxshilanishiga barcha faoliyat turidagi korxonalar ishonishmagan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, faoliyatning barcha turlari bo'yicha yaqin uch oyda ularning iqtisodiy ahvoli o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishiga barcha faoliyat turidagi korxonalar optimistik yondashgan bo'lib, bu ko'rsatkich sanoatda 1,8 punktga, qurilishda 1,8 punktga, savdoda 2.0 punktga, xizmatlar sohasida 1.7 punktga kamaygan.


Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2018 - 2019 yillar IV chorakdagi iqtisodiy ahvolining yaqinuchoydabaholanishi, %






Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining soni 128 tani tashkil qildi. Shundan 47ta (36.7%) savdo, 28ta (21,9%) sanoat, 27ta (21.1%) xizmatlar, 13ta (10.2%) qurilish va 13ta (10.2%) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


2019 yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



2019 yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yichataqsimlanishi, birlikda



2019 yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %




Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilning IV choragida qulay iqtisodiy holat bo'yicha eng baland ko'rsatkich xizmatlar sohasida kuzatilib 22,2 % tashkil qildi. Bu ko'rsatkich bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi korxonalar 7,7 % ni tashkil qilib nisbatan eng past natijani qayd etdi.

Joriy yilning IV choragida faoliyat turi bo'yicha barcha korxonalarda qoniqarli iqtisodiy holat eng katta ulushni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich qurilishda 76,9% va savdoda 74,5% bilan yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Iqtisodiy holati qoniqarsiz bo'lgan eng yuqori ko'rsatkichni 23,1% bilan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi korxonalar qayd etmoqda. Qurilish va savdo sohasida bu ko'rsatkich mos ravishda 7,7% va 8,5%ni tashkil qildi.

2019 yilning IV chorakdagi yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy ahvolini baholash, %




Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra 2019 yilning IV choragida, yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolni yaxshilanishga qurilish sohasi 53,8% korxonalar ishongan bo'lsa, xizmatlar sohasida 51,9% korxonalar ishongan.


Shu bilan birga, yaqin uch oydagi iqtisodiy ahvoli o'tgan chorakka nisbatan sanoat korxonalarining - 64,3 foizi, savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalarining 57,4 foizi, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi korxonalarining 53,8 foizi o'zgarishsiz qoladi deb hisoblagan.

Yaqin kelajakda iqtisodiy ahvoli yomonlashishini faqat sanoat korxonalarining 3,6 foizi tashqil qilgan. Qolgan barcha faoliyat turlaridagi korxonalar optimistik kayfiyatda faoliyat ko'rsatishmoqda.

2019 yilning IV choragida yangi tashkil etilgan korxonalarining yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolini baholash, %



2019 yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalar taqsimoti, %



2019 yil IV-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalar tahlil qilinganda 1 KB kuzatuvda (80,5 %) 1322 ta, 2 KB kuzatuvda (7,8 %) 128 ta va 3 KB kuzatuvda (11,7 %) 193 ta korxonalar ishtirok etdi.